



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИ УНИВЕРСИТЕТИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ
ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ УНИВЕРСИТЕТИ

билан ҳамкорликда
2022 йил 28-июнда ўтказилган

“Ўзбек халқи диний ва миллий қадриятлари”

мавзусидаги республика
илмий-амалий
конференцияси

МАТЕРИАЛЛАРИ

Тошкент-2022

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИ
УНИВЕРСИТЕТИ**

**“Ўзбек халқи диний ва миллий
қадриятлари”
мавзусидаги республика илмий-
амалий конференция
материаллари**

(2022 йил 28 июнь)

Тошкент – 2022

МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мадаева Ш.О.

*Ўзбекистон Миллий университети Ижтимоий
фанлар факультети “Фалсафа ва мантиқ”
кафедраси мудири, фалсафа фанлари доктори,
профессор*

Тахрир ҳайати аъзолари:

Г.Т.Махмудова

Фалсафа фанлари доктори DSc, профессор

Д.Д.Юсупова

Фалсафа фанлари номзоди PhD, доцент

З.И.Одинаева

Фалсафа фанлари номзоди, PhD

Н.А.Джураева

Фалсафа фанлари номзоди, PhD

Техник муҳаррирлар:

М.Х.Тўхтаева, Х.Т.Холбабаева

Матнлардаги ғоя ва фикрлар, фойдаланилган мисол, кўчирма ва маълумотлар аниқлиги учун мақола ҳамда тезис муаллифлари жавобгардирлар.

*ЎЗМУ Ижтимоий фанлар факультетининг Илмий кенгаши томонидан
нашрга тавсия этилган.*

(2022 йил -сонли баённома).

the most important aspects of civil society. In general, free and fair elections indicate the level of development of civil society and give it the ability to survive.

The study of the evolution of the formation of the theory of civil society, the theoretical approaches and the analysis of the practice of the current period showed that only in the conditions of the civil society are the opportunities to ensure human rights and freedoms and the well-being of the people created. and the creation of the economic foundations of civil society is closely related to the increase of the upper social stratum - owners, and their consolidation as a social stratum.

Declaring the creation of civil society as the main strategic goal in Uzbekistan, recognizing the principle of "a strong civil society from a strong state" as the main poet of our development ensures the success of our reforms.

MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR ASOSIDA TA'LIMDA TIBBIY MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Navruzova Muyassar G'aybullaevna

BuxDU Pedagogik ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi.

Til – millatning ma'naviy boyligi. Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarsi, tarixidir. Tilni sevish va ardoqlash millatni sevish va qadrlash bilan teng hisoblanadi.

Sir emaski, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh maqsad-mohiyati xalqimizga munosib hayot sharoitini yaratib berish: “Islohot islohot uchun emas, inson uchun, uning manfaatlari uchun”, – degan ezgu g‘oyani amalga oshirishdan iboratdir.

Keyingi yillarda jamiyatimizda kuzatilgan ma’naviy yangilanish, shaffoflik, ijtimoiy adolat tamoyillarida ustuvorlik insonlar qalbida ertangi kunga ishonch hissini bir necha barobar oshiradi. Bunda, alabatta, sog‘lom turmush tarzining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Sog‘lom turmush tarzining shakllanishi avvalo, insonlardagi ma’naviy-ruhiy sog‘lomlik darajasi bilan bog‘liq. Xalqimiz bejizga “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” deb aytmaydi. Darhaqiqat, shunga yaqin fikrni mashhur yunon hakimi Buqrot ham ta’kidlagan edi: “Ruhni davolamay, tanga shifo berib bo‘lmaydi”. Albatta, mazkur da’vomizning isbotiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Zero, bu hayotning rad eib bo‘lmaydigan haqiqatidir.

Joriy yilda Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev sog‘liqni saqlash sohasi xodimlari bilan uchrashuvida tibbiyotning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati masalasiga to‘xtalar ekan: “Barchamizga ayonki, odam sog‘lom bo‘lmasa, unga ish ham, moddiy ne‘matlar ham, hayot quvonchlari ham tatimaydi. Bu aksiomani hech kim inkor qilolmaydi”, – deb yana bir karra ta’kidladi. Haqiqatan ham, ertangi kunimizga ishonch, avvalo salomatligimiz bilan aloqador. Aytish joizki, hayotning barcha sohalarining poydevorini bunyod etuvchi, rivojlantiruvchi ta’lim sohasida ham tibbiyotga aloqador masalalar dolzarb hisoblanadi. Buni ayniqsa, til ta’limida yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Avvalo, bugungi globallashuv davrida, ayniqsa, g‘oyalar kurashi keskin tus olgan paytda mazmundor mohiyatga ega nutq ham, mahoratli, fikri teran, so‘zga chechan notiqlar ham deyarli barcha sohalarda suvdek, havodek zarur. Chunki asosli, hayotiy, samarali targ‘ibot va tashviqotgina xalqni ishontiradi, ruhlantiradi, ulug‘ va qutlug‘ maqsadlar sari ilhomlantiradi. Aks holda, dushman undan ustomonlik bilan foydalanib omma ongini zaharlashi, turli oqimlar tomon og‘dirishi, asosiy maqsaddan chalg‘itishi, yo‘ldan ozdirishi hech gap emas. Jaholatga qarshi ma‘rifat yarog‘idan ayniqsa, yoshlar to‘la va to‘g‘ri foydalana olishi kerak. Shuning uchun ham Prezidentimiz nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shunchaki muloqot va muomala manbayi emas, balki ma‘rifat va ma‘naviyatning, targ‘ibot va tashviqotning quroli sifatida his etib, bundan foydalana olish milliy g‘oyamiz himoyasiga daxldor ekanini alohida uqtirmoqda. Chunki g‘oyamiz — himoyamiz, himoyamiz esa g‘oyamizdir. Prezident o‘z nutqlarida ma‘rifatparvar adib Fitratning “Bu dunyo kurash maydonidir. Sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir”, — degan so‘zlarini ham bejiz eslatmadi. Aqlan, ruhan va jismonan sog‘lom avlod barkamol bo‘lganidek, xulqiy va nutqiy madaniyatga ega bo‘lgan inson komil inson sanaladi.

Tibbiyotga sohasi haqida aytadigan bo‘lsak, shifokorning bemor bilan muloqoti hamisha dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Bemor bilan muomalaga kirishishning o‘ziga yarasha shartlari bor, albatta. Shifokor bemor xastaligining taxminiy diagnozini, shaxsini, kasbini, ijtimoiy sharoitini, saviyasini, dunyoqarashini, bilim darajasini, tashqi psixik

belgilarini o'rganganidan so'ng, o'zini ham bu muloqotga ruhan tayyorlaganidan keyingina u bilan muloqot qilish uchun ma'naviy haqqi paydo bo'ladi. Bemor va shifokor muloqoti shartli ravishda ikki doirada kechadi. Birinchi, tashqi doiraga shifokorning bemor bilan muloqotga tayyorlanish bosqichidagi amallar kiradi. Ikkinchi, ichki doirani esa bemor shaxsini, uning kasallik sabablarini begilovchi dalillar tashkil etadi. Birinchi doira sohibining mahorat darajasi qay darajada yuksakligi uning ikkinchi doiraga "ko'prik" sola olish san'ati bilan belgilanadi. Aynan shu "ko'prik" solinganidan so'ng bemor shifokorga ishonch va umid ko'zi bilan qaray boshlaydi. Shifokor bemor bilan muloqotning avvalidayoq uning saviyasiga mos ravishda suhbatlashishi muhim. Bemor hunarmand bo'lsa, shunga mos maqomda, akademik bo'lsa, albatta, uning yuqori saviyasiga yarasha muomala qila olishi asosiy talablardandir. Shifokor beixtiyor bu holatning aksini qilsa, u holda o'zining tuzatib bo'lmas xato qilganini bir umr afsus bilan eslab yurishiga to'g'ri keladi. Shifokor bemorni o'rab turgan atrof-muhitga katta e'tibor bermog'i lozim. Uning botiniy va zohiriy ko'rinishi bemor bilan kechadigan muloqotiga bevosita ta'sir otkazishi mumkin. Xususan, bemor yotgan xona shinam, ozoda, havosi toza bo'lishi, albatta, uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu - botiniy ta'sirdir. Zohiriy ta'sir esa bemor atrofida kechadigan ijtimoiy hayot: boshqa bemorlarning, kichik tibbiy xo'dimlarning yoki tashrif buyuruvchilarning salbiy xatti-harakatida ko'rinadi. Bu ta'sirga, atrofdagi shovqin-suronlar, qo'shni bemorlarning muloqoti, hatto, shifokorning yoqimli bo'lib tuyulgan tovushi, mimikasi, harakatlari ham kiradi.

Shifokor, bemor bilan muloqotga kirishar ekan, uning ko‘z o‘ngida ma’lum ma’noda kamchiliklardan xoli, yuksak axloqli inson sifatida gavdalanishi zarur. Shifokor ma’naviyati deganda, ma’nili fikrlashi, so‘zlashi, shuningdek shaxsiyatidagi, tarbiya va odobidagi hamda amaliyotidagi barcha ijobiy xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Tibbiyot xodimlarining kasbga munosabati, axloq-odobi, shuningdek, shifokorlar va bemorlar orasidagi turli huquqiy munosabatlar zamonamiz tilida bioetika va deontologiya deyiladi. Buni sodda shaklda ona tilimizga ko‘chirsak, tibbiyot xodimi bilan bemor o‘rtasidagi burchga sodiqlik, muomala qoidalariga rioya qilishi va yaxshi, to‘g‘ri muloqot, munosabat ham desa bo‘ladi. Tibbiyotimizning necha ming yillik tajribasi ham, uning bilimdonlari – Buqrot-u Jolinusdan tortib, Abu Ali ibn Sinogacha buni tasdiqlaganlar. Ularning ta’biricha, bemorning ruhiy holati davolovchi shifokor, hamshira uchun qanchalik ahamiyatga molik bo‘lsa, bemorning o‘zi uchun ham shunchalik qimmatlidir. Bemor bilan suhbatda uning kechinmalarini yengillashtirishga intilish belgilangan dori-darmonlarga qaraganda yaxshiroq ta’sir ko‘rsatadi, natija beradi. O‘zaro muloqotdan so‘ng tibbiyot xodimiga - uning bilimi, tajribasi, samimiyatiga bemorda ishonch hosil bo‘lmog‘i, insoniy fazilatlariga hurmat va muhabbat uyg‘onmog‘i kerak.

Shuningdek, ma’naviyat shifokorlarga nihoyatda zarur omil bo‘lib, bu ularning qalb ko‘zgidir. Tibbiyot xodimi, eng avvalo, sof vijdonli, halol, adolatli, yuksak axloqli bo‘lmog‘i kerak, chunki vijdon insonning ichki axloqiy hakamidir. Vijdon - bu o‘z burchini anglash demak. Tibbiyot

olamida vujudga kelgan ko'pgina muammolarning hal qilinishi vijdonga, shifokor va hamshiraning axloqiy madaniyatiga va ma'naviyatiga bog'liq. Chunki ular doimo el orasidadir. Shu bois tibbiyot o'quv yurtlarida deontologiya o'rgatilgan. "Deontologiya" tushunchasi kishining xulqi, odobi haqidagi fanni ifodalash uchun XVI- asrning boshlarida ingliz faylasufi va iqtisodchisi I. Bentam tomonidan taomilga kiritilgan edi. Bu atama joriy qilinmasdan ancha ilgari tibbiyot xodimining odob qoidalarini tartibga solib turuvchi asosiy axloq qoidalari va qasamyodlari uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan yozma manbalarda saqlangan. Tibbiyot deontologiyasi tib xodimlaridan yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu fazilatlar: bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mehr-shafqat, xushmuomalalik, halollik, pokizalik, insoflilik, sofdillik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosiqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik, andishalilikda namoyon bo'ladi. Aslida tibbiyot - bu ilmi yoki san'atmi, degan fikr hozirgi davrga qadar tabobat olamida yechilmay kelayotgan masala. Uzoq va yaqin o'tmishdagi allomalar, bugungi olimlar e'tirof etishicha, tibbiyotga, avvalo, fan sifatida qarash kerakligi hech kimda e'tiroz yoki shubha tug'dirmaydi. Lekin uning amaliy ijrosi, tabobatchilik sir-asrorlarini hayotga tadbiq eta olish katta san'at ekanligini ham e'tirof etish joizdir. Aslida, tibbiyot deontologiyasi keng falsafiy tushuncha bo'lib, bir qancha yo'nalishlardan iborat. Ular: shifokor bilan bemor o'rtasidagi munosabat; shifokor bilan bemorning yaqin kishilari (qarindoshlari, do'stlari, hamkasblari) orasidagi munosabat; shifokorlarning hamkasblari, hamshiralar va kichik tibbiyot xodimlari bilan munosabati; shifokor va

bemorning davolash jarayonidagi huquqlari; shifokorlik sirlarini saqlash madaniyati; ustoz va shogird munosabatlari; - shifokor faoliyatidagi xato kamchiliklar va boshqalar. Deontologiya qonun-qoidalarining tibbiyot amaliyotida to‘g‘ri joriy qilinishi tibbiyot xodimining ongi, saviyasi, dunyoqarashi, bilim mezoni va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog‘langandir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida shifokor, hamshiralarning bemorlar bilan deontologik munosabatlari turlicha kechgan. U zamon talabiga qarab o‘zgarib borgan. Fikrimizcha, bugungi kun talabi, kishilarimizning ahvol-ruhiyasidan kelib chiqqan holda, shuningdek, til ta‘limi vazifalari, yutuqlariga tayangan holda muloqot madaniyati hamda deontologiyani qo‘shib o‘rganishni tibbiyot muassasalarida jonlantirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa shundan iboratki, inson salomatligiga ta‘sir qiluvchi birinchi muhim omil –muloqot madaniyati, bemor uchun shifokor munosabati, uning o‘rinli muomalasidir. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bu borada xalqimiz ma‘naviy xazinasini va tibbiyotida ancha tajriba va bilim to‘plangan bo‘lib, ulardan o‘rganish va amaliyotda samarali qo‘llash bugungu avlodning zimmasidadir.

МУНДАРИЖА

	Инаков К.Қ.	Кириш сўзи	
	Мамаюсупов С.Д.	Табрик сўзи	
1-ШЎБА. МАРКАЗИЙ ОСИЁ ХАЛҚЛАРИ ИСЛОМГАЧА ДАВР МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ СИНТЕЗИ			
1	Маҳмудова Г.Т.	Зардуштийлик онтологияси ҳақидаги таълимот	
2	Ўроқова О.Ж.	Марказий Осиё халқларининг исломгача давр моддий ва маънавий эстетик қадриятлар синтези	
3	Сабитова З. К.	Философия как неотъемлемая часть современной реальности	
4	Абдукамилов Р.Т.	Национальные и религиозные ценности Узбекистана — генезис в Авесте	
5	Жалилов А. Х.	Zarafshon vohasi atrofidagi qadimiy savdo markazlari	
6	Мадаева Ш.О.	Замонавий Ўзбекистон диний идентиклиги шаклланишининг XX аср илдизлари	
7	Махмудов Б.Х.	Қарлук-Қорахонлар ҳоқонлигида Яғмо ва Қарлук қабиласининг ўрни хусусида	
2-ШЎБА. ЭТНОМАДАНИЯТ МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТРАНСФОРМАЦИЯСИ КЕСИМИДА			
8	Ғойибназаров Ш.Ғ.	Оммавий маданият трансформацияси: миллий қадриятларга янги таҳдидлар	
9	Жалалова Г.О.	Ёшларнинг қадриятлари структурасидаги трансформация жараёнларини тадқиқ этиш зарурияти	
10	Ахмедов Э.К.	Миссионерлик ғоялари диний онга таъсирининг ахлоқий қадриятларга таҳдид сифатида намоён бўлиши	
11	Хатамов Т.А.	Марказий Осиё тасаввуф мактабларининг шаклланиш жараёни	
12	Саитмуродов Ж.Б.	Гегель қарашларида оила ва муҳаббатнинг субъектив иродалар гармонияси сифатидаги талқини	
13	Баратов Р.Ў.	Ижтимоий тараққиётнинг этномаданий жиҳатлари	
14	Эронов С.Қ.	“Ишонч” категорияси ва унинг талқини	
15	Каюмов Б.И., Абдулхакимова Н.Т.	Значение сопоставительной методики в изучении русского языка в непрерывном образовании	
16	Эргашев С.М.	Маориф тизимида таълим ва тарбиянинг уйғунлиги (хх аср бошлари)	
17	Ким Л.А.	Эколого-нравственный императив в логике ценностного подхода	
3-ШЎБА. МИЛЛИЙ ИДЕНТИЛИК, ИЖТИМОЙ ОНГ ВА ОИЛА ИНСТИТУТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИДА МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ АКСИОЛОГИК МОҲИЯТИ			
18	Юсупова Д.Д.	Жадид маърифатпарварларининг тўй ва маърака маросимлари хусусидаги қарашлари	
19	Инаков К.Қ.	Basic national values as the basis of social development	

		хусусиятлари	
44	Мамадалиева Ф.А.	Ислом қадриятларида шахс масъулиятининг намоён бўлиши	
45	Курбонназаров А.	Самуэл Хантингтоннинг цивилизациялар парадигмасини ривожланиш муаммоси ҳақидаги фалсафий қарашлари	
46	Джураева Н.А.	Теоретические подходы к формированию парадигм цивилизаций	
47	Нишонов С.Ж.	Мамлакатимизда таълим ва тарбия парадигмаси аспектида шарқ алломалари меросининг долзарб масалалари	
48	Тулаганова М.К.	Учение аль-Фараби о государственной политике в современной интерпретации	
49	Тўхтаева М., Норбоева А.	О'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati - yoshlar iqtidorini namoyon qilish imkoniyatlari	
50	Джураев А.М.	Civil society as a social value	
51	М.Г'. Navruzova	Milliy va diniy qadriyatlar asosida ta'limda tibbiy muloqot madaniyatini shakllantirish	
52	Х.В.Соқиев	Замонавий жамиятда “Тафаккур энтропияси” сининг ижтимоий-фалсафий талқини.	